

TEMURIYLAR DAVRI MUTAFFAKKIRLARINING AXLOQIY QARASHLARI

**Xolmirzayeva Sevara Nazirjon qizi,
Xayriyev Olimjon Lutfiddin o'g'li,**

Toshkent viloyat Chirchiq davlat pedagogika instituti talabalari

Ilmiy rahbar: **Azamatjon Xudaynazarov –**
TVChDPI o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda yoshlarni ma'naviy-axloqiy hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Amir Temur va temuriylar davri mutafakkirlarining shoh asarlari, pandnomalari, axloqiy ta'limalotlarining o'rni beqiyosdir. Ushbu maqolada ana o'sha Temuriylar davri mutafakkirlarining yoshlarni o'z vataniga muhabbat, sadoqat, vatan himoyasida jonkuyarlik ruhida, qolaversa yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashda qo'shgan hissalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ma'naviy-axloqiy kamolot, vatanparvarlik, ma'naviy meros, axloqiy fazilatlar, "Temur tuzuklari", ilm-fan, adolat.

Tarixdan bilamizki, biz yashab turgan diyorda qadim zamonlardanoq ilm-fan, madaniyat, ma'naviyat, san'at kabi sohalar yuksak darajada rivoj topgan. Shuningdek axloqshunoslik sohasi ham o'sha davlardan yuksala boshlagan va bugungi kunda ham ulkan ahamiyat kasb etadi. Darxaqiqat, biz axloq haqida juda ham ko'p eshitganmiz, hadislar-u rivoyatlar she'rlar-matallar, bularning barchasi kishini axloqiylik sari da'vat etadi. Ta'kidlash joizki, inson hayotida axloqning o'rni beqiyos, zero insonni hayvondan farqlovchi jihatni ham uning ongliligi, ma'naviyatliligidir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek: "Aslini olganda, axloq-ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmomilalikdangina iborat emas, axloq-bu, avvalo, insof va adolat tuyg'usi, imon, halollik degani"[1].

Axloqshunoslik sohasiga turli davr xususan, Temuriylar davri mutafakkirlari o'z asarlari, o'z qarashlari orqali ulkan hissa qo'shganlar. Ularning odob-axloq, madaniyat-ma'naviyat sohasidagi qarashlari, fikrlari bugungi kunda madaniyatimizni yuksaltirishda, yosh avlodni ma'naviy dunyosini boyitishda, ularni yuksak axloq egasi sifatida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

O'rta asrlarning to mo'g'ullar bosqiniga qadar bo'lgan davrda, Al-Beruniy, Az-Zamaxshariy, Ahmad Yasaviy, Naqshbandiy, Najmidin Kubro, Shayx Sadiy, Temuriylar davrida esa Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy, Jaloliddin Davoniy kabi allomalar axloq ilmida faoliyat ko'rsatdilar. Qadimdan rivojlanib kelgan madaniyat sohasi ming afsuski ko'plab bosqinlar sabab izdan chiqdi, ammo Amir Temur davrida qayta tiklandi. Temurning o'zi ham ilm-fan madaniyat, ma'naviyat sohasiga yuksak e'tibor bilan qaragan. Bu haqda tarixchi Ibn Arabshoh quyidagicha yozgan: "Temur olimlarga mehribon, sayidu shariflarni o'ziga yaqin tutar edi. Ularning har birini o'z martabasiga qo'yib, izzat-ikromini unga izhor qilar edi"[2].

Amir Temur johillik, yovuzlikni, zo'ravonlikni yoqtirmas, insonparvar, adolatli hukumdar edi. Masalan, "Temur tuzuklari" hukumdorning hokimiyatni boshqarish qoidalari hamda odob-axloq meyorlarini belgilab beruvchi yo'riqnomadir. Taniqli olim Bo'riboy Ahmedov "Temur

tuzuklari” podshohlarning turish turmush va axloq-odob normalarini belgilovchi risoladir, deb ta’riflaydi.

Haqiqatdan ham, mazkur asarni turmush odobi, hulq-odob qoidalari tartib berilgan an’anaviy asarlar qatoriga qo‘ysak bo‘ladi. Zero, tarixan ta’limiy-axloqiy asarlarning barchasida ham dastlab davlatni boshqarishga oid qarashlar, so‘ng axloq meyorlari bayon etiladi. Shunga ko‘ra bu asardan ta’limiy-axloqiy asar sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Amir Temur bu asarida insonparvarlik, mehnatsevarlik, adolatlilik, vatanga sadoqat, jasorat, to‘g‘rilik, do‘stlik va hamkorlik, mehr va muruvvat ko‘rsatish, sabr-qanoat, yaxshilik kabi xislatlarni ulug‘laydi va xiyonat, bevafolik, sotqinlikni qoralaydi[3].

Temuriylar davri axloqshunos mutafakkirlarni yod ola turib buyuk mutafakkir alloma Alisher Navoiyga to‘xtalmaslikning iloji yo‘q. Navoiy nafaqat badiiy asarlari, she’rlari orqali balki axloqiy-ma’naviy pandnomalari orqali ham yodimizdan, qalbimizdan chuqur o‘rin egallagan. Shu sababli ham “alloma Bertels Navoiyni, nafaqat buyuk shoir hamda mutafakkir, balki buyuk va pokiza zot, nomi bosh harflar bilan yozilishga loyiq inson edi” deya ta’riflagan[4].

Navoiy doimo insonni ulug‘laydi, undagi yuksak fazilatlar hisoblanmish oriyat, nomus, mehr-shafqat, adolatni insonlarga targ‘ib etuvchi g‘oyalar uning har bir asariga singdirilgan. Navoiy asarlarini o‘qib-o‘rganar ekanmiz ularning tub zamirida, eng oliv mavjudod hisoblanmish insonning bu dunyodagi eng oliv maqsadi kamolotga erishish kabi ezgu g‘oya yotadi. Mutafakkir ijod dengizidan bir tomchisi, ya’ni tasavvuf axloqiga oid bir mashhur qit’a borki, shu to‘rt qatorgina misralarda qancha ma’no, mazmun borligini ko‘rib tahsin aytmay iloji yo‘q:

Kamol et kasbkim, olam uyidin

Sanga farz o ‘lmag ‘ay g ‘amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o ‘tmak biaynih,

Erur hammomdin nopol chiqmoq[5].

Bir qarashda oddiygina tuyilsada, uning tub zamirida qanchadan qancha ma’no mujassam. Bu she’rda yuzaki qaraganda, gap dunyodan biror bir kasbning boshini tutmay o‘tib ketishi yaxshi emasligi haqida ketayotgandek ko‘rinadi. Aslida esa u, tasavvuf axloqshunosligining “kasb” tushunchasi bilan bog‘liq.

Navoiy hazratlari bu dunyoga kelib, Alloh inson uchun yaratgan barcha fazilatlar va eguliklarni o‘ziga kasb qilib olmagan, yuqtirmagan kishi tiriklik olamidan boshi quyi solingancha chiqib ketadi, chunki dunyodan notamom, ya’ni komillikkha erishmay otish xuddi hammomga kirib, yuvinmay chiqib ketish bilan barobar, deydi. Demak, ulug‘ mutafakkirning fikriga ko‘ra, har bir inson bu dunyoda Xudo unga atab ne’mat sifatida yaratgan fazilatlar egasi bo‘lmog‘i, komillikkha intilmog‘i zarur, ana o‘shandagina u o‘z insoniylik burchini bajargan, inson degan nomni oqlagan sanaladi[4, 75-bet].

Xullas shuni aytish joizki, Temuriylar davrida ilm-fanga oid barcha sohalar rivojlandi, qolaversa, madaniyat, ma’naviyat, axloq kabi yuksak fazilatlar ulug‘landi. Ushbu davrda ijod etgan mutafakkirlar axloqning, ma’naviyatning inson hayotidagi o‘rni nechog‘lig‘ ahamiyatli ekanini har jahbada namoyon etishdi. Bugungi kunda ushbu qarashlar o‘z isbotini topmoqda. Zero mamlakatimiz kelajagi yoshlarga bog‘liq ekan, har bir o‘sib kelayotgan avlod eng avvalo o‘zligini anglamog‘i, qaysi yurt farzandi ekanligi, kimlarning avlodni ekanligini yodda saqlamog‘i lozim. Ushbu fikrlarning tasdig‘i o‘laroq Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi so‘zlarini keltirib o‘tamiz: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlарimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlар. Mayli, yoshlар o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan

da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, deya takidladi[6].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. -T.: “O‘zbekiston”, 1996, –B. 39.
2. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 1-kitob. U.Uvatov tarjimasi. -T.: “Mehnat”, 1992. – B.247.
3. Abdulla She'r. Axloqshunoslik. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, - Toshkent: 2010. –B. 74.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. -T.: “Fan”, 1998. -B. 544.
5. Kalkanov Eshmatboy. (2021) [Patriotism and Socio-Spiritual Factors that Patriotism](#). International Journal of Development and Public Policy. –pp. 177-179.
6. Мирзиёев III. Янги Ўзбекистон – таракқиёт стратегияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2022 - Б. 293.
7. Karimov D. (2022) O‘zbekiston Respublikasida yoshlar tarbiyasida diniy-axloqiy bilimlarning o‘rni / Interdisciplinary research: scientific horizons and perspectives III International Scientific and Theoretical Conference, -p. 80-81.
8. Umidbek Adambayev. (2021) Faith – the conception of belief and steps to develop it / Actual problems of modern science, education and training. – p. 96.
9. Umid Adambayev. (2021). [Milliy o‘zlikni anglash millat taraqiyotining poydevori](#) // Scientific progress. – pp. 1858-1862.
10. Кандов Б.М. (2022) [Роль этнокультуры в воспитании молодежи Узбекистана в духе национальной идеологии](#). Conference Zone. – pp. 77-80.
11. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2022). [Socio-legal foundations for the development of a civic position among the youth of a renewed Uzbekistan](#). International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – pp. 185-188.
12. Kandov B.M. (2022). The Role of Religious and Moral Values in Strengthening the Spiritual Development of Society and Individuals // European journal of life safety and stability (EJLSS). – pp. 88-92.
13. Kandov B. (2022) [Current Issues of Harmony of Human and National Values In the Formation of Civil Station of the Youth of New Uzbekistan](#). Journal of Ethics and Diversity in International Communication 1 (8), 30-33.
14. Адамбаев Умидбек. (2022) [Ишонч-эътиқодни шакллантиришда урф-одат ва анъаналарнинг таъсири](#) / Scientific progress. – pp. 348-351.
15. Kandov B.M. Ikramov R.A. (2022) The Role of Ecological Values in the Private Perspective in the Process of Globalization // European journal of life safety and stability (EJLSS). – pp. 68-73.
16. Умидбек Хайтбаевич Адамбаев. (2022) [Экологик маданият ва уни шакллантириш](#) // Academic research in educational sciences. – pp. 125-134.
17. Umidbek Xaitbayevich Adambayev. (2022) [Navro‘z bayrami va uning etnomadaniy ahamiyati](#). Academic research in educational sciences. – pp. 175-177.
18. Умидбек Адамбаев. (2022) [Ишонч-эътиқодни шакллантиришда аргументлашнинг ўрни](#) // Academic research in educational sciences. – p. 898.
19. Баходир Мирзаевич Қандов. (2021) [The importance of forming an active civic position among young people](#). Актуальные научные исследования в современном мире. – С. 102-106.

20. Қандов Б.М. (2021). Philosophical and Legal Problems of Women's Rights And Freedoms in the Process of Globalization // Актуальные научные исследования в современном мире. – pp. 65-70.
21. Bakhodir Qandov. (2020) Human Rights are a Social Phenomenon: The Principles of Globalization and Personal Liberty. – P. 488-495.
22. Kandov B.M. (2021). Problems of Global Ecology and Socio-Natural Environment // International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – pp. 182-186.
23. Ikramov R. Kandov B.M. (2021). The Role of Education and Upbringing in the Formation of a Harmonious Personality in the Process of Globalization // Journal of Ethics and Diversity in International Communication. – pp. 33-37.
24. Togayev Shavkat Hurramovich. Kandov Bakhodir Mirzayevich. (2021) The role of education in the development of environmental consciousness of a person. ISJ Theoretical & Applied Science, 1129-1133.
25. Bakhodir Qandov, Hamza Juraev. (2020) Creation of a New System of Education and Education in the Bukhara People's Republic // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – pp. 496-501.
26. Adambayev U.X. (2022) Zamonaviy dunyo: ijtimoiy tarmoqlar inson resurslarini boshqaradi. Scientific Progress, 499-501.
27. Ismayilov Akmal Ziyadillaevich. Factors in the Development of Civil Society Institutions in the New Uzbekistan // International Journal of Development and Public Policy Vol. 2 No. 3 (2022). – pp. 84-91.
28. Sultanov Og'abek. The essence of the obligation in the views of eastern thinkers. Academicia Globe: Inderscience Research. –p. 39-42.
29. Ikramov Ravshan Aktamovich, Ismayilov Akmal Ziyadillaevich. (2020) Historical and Theoretical Roots of Establishing a Democratic Law in Uzbekistan. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – pp.507-510.
30. Adambaev U. (2021). Confidence-nonverbal methods of argumentation in the formation of the verb // Экономика и социум. – С.18-21.
31. Adambayev U.X. (2022). Etnomadaniyatning insonlar hayotida tutgan o'rni. Scientific Progress, 519-521.